

ONA TILI DARSINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Xudoyberdiyeva Nodira

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

93-umumta'lim maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarini samarali tashkil etish, bu jarayonda qo'llash mumkin bo'lgan interfaol metodlar, zamonaviy metodlar, didaktik o'yinlar va interaktiv usullar borasida so'z boradi. Shuningdek, ona tili darslarida foydalanish uchun metodik o'yinlarning ayrimlaridan namunalar keltirildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, Ona tili, , didaktik o'yinlar, AKT vositalari, interfaol metodlar, innovatsion yondashuv

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ta'lim berish, zamonaviy hamda samarali innovatsion metodlardan foydalanish, qolaversa, dars jarayonida turli AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida fanga, izlanishga, tadqiqotga yondashish, bilimlardan samarali foydalanishga yordam beradi. Bunday natijaga erishish uchun esa, albatta dars jarayonida innovatsion, metodlar, didaktik o'yinlardan foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalarini darsga tadbiq etish talab etiladi. Bu jarayonda o'qituvchi shaxsning rivojlanishi, ta'lim va tarbiyani shakllantirish uchun sharoit yaratadi va shu bilan birga boshqaruv, yo'l-yo'riq ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Ona tili fani o'qitishda darsda psixologik jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchida pedagogik mahorat bilan birga psixolog bo'lmog'i lozim. Dars davomida psixologik hamda innovatsion metodlarga vaqt ajratish darsning qiziqarli bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga, mavzuni chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Shuningdek, hozirgi ta'lim jarayonida izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Interfaol metodli

dasturni yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida qo'llanishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama –yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvafaqqiyatli chiqqandan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki, o'quvchilar interfaol metodli darslarda ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur.

Insonni tarbiyalashda, inson shaxsini kamol toptirish va shaxsni shakllantirishda o'qitish va ta'lim berish muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish kishilik jamiyatida, uning ilk rivojlanish bosqichlarida paydo bo'ldi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar insoniyat ijtimoiy-tarixiy tajribasining muayyan jihatlari- ideologiyasini, siyosatini, fanni, axloqni, mehnatni, adabiyot va san'atni, umumiy va jismoniy madaniyatni o'zlashtiradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayondir. Ta'lim berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikmalar va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyalashdir. Ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limni jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq tarzda takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyilari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash me'yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me'yoriy hamda tashkiliy –texnologik vazifalarni bajaradi.

Quyida ona tili darslarida interfaol metodlarning roli, ularni darsga tadbqiq etish usullari hamda vaqtni samarali tashkil qilish xususida gaplashamiz.

Interfaol – inglizcha “inter” so'zidan olingan bo'lib, “o'rtasida”, “orasida” degan ma'noni anglatadi. Interfaol metod bu ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish, faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirish demakdir. Interfaol metodlar o'quvchi va o'qituvchining faol munosabati bir birini tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni darsga tadbqiq etishdan maqsad dars qaysi shaklda olib borilmasin, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. Bu jarayonda o'qituvchi faqat yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Dars jarayonida interfaol metoddan foydalanishdan maqsad, o'quvchilarni ijodiy, mantiqiy, tanqidiy va mustaqil fikrlashga

o'rgatishdir. Interfaol metoddan foydalanilganda o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, individuallashtirib, tabaqalashtirib yoki muloqot qilish orqali amalga oshirish mumkin.

Bu jarayonda esa, darslik, boshqa adabiyotlar, tarqatma materiallar va multimedialardan foydalanish mumkin.

Albatta, yuqorida aytganimizdek, har bir fanda interfaol metodini qo'llash o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Masalan, adabiyot darslarida interfaol metodidan foydalanish qay tarzda amalga oshadi va bu qanday samara beradi? Quyida ularning ayrimlaridan namuna keltiramiz.

Bahs- munozara metodi

Bahs munozara metodi bu biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib boorish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirish yoki o'qituvchi olib borishi mumkin. Ushbu metodni amalga oshirishda quyidagilarga amal qilish lozim.

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish
- o'ng qo'l qoidasi ga rioya qilish
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati
- bir fikrni qayta takrorlamaslik
- bir-biriga o'zaro hurmat

“To'xtama” metodi

O'quvchilarni rag'batlantirish va maqollarni bilish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi o'yin shartini aytmagan holda talabgor o'quvchilarni doskaga chiqaradi. O'quvchilar istaganicha doskaga chiqishi mumkin. o'qituvchi birinchi o'quvchiga bejirim karopka beradi. O'quvchi esa, birorta maqol aytib, karopkani sherigiga

uzatadi. Karopkani olgan o'quvchi maqol aytib yana keying o'quvchiga uzatadi. Maqol aytmagan yoki aytilgan maqolni aytgan o'quvchi

o'yindan chetlashtiriladi. O'yin bitta o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Oxirgi

qolga o'quvchi g'olib bo'lishi uchun maqol aytadi va karopkani ochib , o'qituvchi tomonidan tayyorlangan sovg'aga ega bo'ladi.

“Musavvir ” metodi

Ushbu metod darsning o'tgan mavzuni mustahkamlash va yangi mavzuni

mustahkamlash qismida foydalanish uchun mos keladi. “Musavvir ” metodidan foydalanish uchun A3 formatdagi yoki undan kattaroq qog'ozdan foydalanishimiz mumkin. Metoddan foydalanish jarayonida bugun o'tilayotgan mavzudan tashqari, yosh musavvirlar uchun ham rasm chizishga bir mavzu tanlash lozim. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mavzu yuzasidan turli savollar va topshiriqlar beriladi. Berilgan savolga to'g'ri javob bergan yoki berilgan topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchi qalam yordamida A3 formatdagi qog'ozga bir dona shakl chizadi. Ushbu shakl tanlangan mavzuga mos bo'lishi lozim. Agar tabiat mavzusi tanlangan bo'lsa, tabiatda mavjud birorta shakl chizadi, masalan, bulut. Har bir o'quvchi bilan savol-javoblar qilinadi va javob bergan o'quvchi o'zidan oldingi o'quvchi tasvirlagan

rasmni to'ldirgan holda shakl chizadi. Metoddan kutilayotgan natijalar:

- O'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish
- Dunyoqarashini kengayishiga yordam beradi
- Mavzuni mustahkamlaydi
- Ushbu dars tasviriyl san'at bilan integratsiya qilinadi.


“Hammualiflar ” o'yini

Ushbu o'yinning jarayoni quyidagicha, bunda o'qituvchi matnni o'qiydi yoki o'quvchilar matn bilan mustaqil tanishadilar.

Topshiriq:

- Matnning davomini o'ylab toping. Kelgusida qanday voqealar sodir bo'lishi mumkin ekanligini o'ylab ko'ring.
- Qahramonlardan qaysi biri voqealarga ko'proq ta'sir ko'rsatgan? U ishtirok etmasa asar mazmuni qanday o'zgaradi?
- Syujetning rivojiga qaysi voqea ta'sir qilgan?

“Nilufar guli” metodi



Yuqorida chizmasi keltirilgan metodni barcha mavzularga qo'llash mumkin. Bundan tashqari yana bir qancha zamonaviy metodlarni qo'llash mumkin. Bu albatta o'qituvchini dunyoqarashi, tasavvuri va malakasiga bog'liqdir. Dars jarayonida qiziqarli metodlarni qo'llash o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini yanada oshiradi. Birgina misol, biz qaysi sinf yoki qaysi fandan bo'lmasin namunaviy ochiq dars o'tadigan bo'lsak, o'sha darsdagi har bir tushuncha mavzu barcha o'quvchini yodida qoladi va yaxshi o'zlashtirgan bo'ladi. Demoqchi bo'lganim shuki, har bir soatni xuddi namunaviy ochiq dars shaklida tashkil qilsak, zamonaviy metodlardan foydalansak albatta, barcha mavzu o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtiriladi va ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bu

yo'lda jonkuyar ustozlarimiz tinimsiz mehnat qilishlari, o'z ustida puxta ishlashlari talab etiladi. Quyida yana bir nechta Grammatik o'yinlarni ko'rib chiqamiz.

“Zehn matni” usuli

Ushbu metod darslikda berilgan matn bilan o'quvchilar tanishib bo'lgach zehni sinash uchun yoki uyga vazifa sifatida berilgan matnni mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Buning uchun dastlab o'quvchilarga matn yozilgan qog'oz tarqatiladi. Matn ichidagi ayrim so'z va raqamlar o'zgartirib qo'yiladi. O'quvchilar esa, ana shu xatolikni topib, matn tagida berilgan jadvalga joylaydilar.

Namuna

O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning *nochor* do'sti bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun uning *uch tanob* yerini sotishini iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir tanobini kambag'al do'stiga sotibdi. Yerni olgan odam bir yaqin do'stidan *juft ho'kiz* olib kelib, yer haydayotganida. Omochning tishi bir nimaga tegibdi. Dehqon parvo qilmay haydayveribdi. Qayib o'sha yerga kelganida omochning tishi yana

haligi narsaga urilibdi. Kambag'al dehqon : “Ilgari bu yerda daraxt bo'lgan, uning ildizi qolib ketgan , shekilli ”, -deb o'ylabdi.

Noto'g'risi

To'g'risi

Nochor

kambag'al

Uch tanob

bir tanob

Juft ho'kiz

qo'sh ho'kiz

Ushbu metodning natijaviyligi shundaki, bolaning ziyrakligini oshiradi, mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi va qiyosiy o'rganish rivojlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, ta'lim olish , bilim olish qanday shaklda bo'lmasin , doim bola aqlini rivojlantirish , uni kamol toptirishni maqsad qilgan bo'ladi.

Ta'lim jarayonini odatiy tusdan noodatiy tarzga yo'naltirish, darsda turli metodik o'yinlardan, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolani darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Bundan ko'zlangan maqsad, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqni to'ldirish, ular ongini imkon qadar foydali ma'lumotlar bilan to'ldirish va ularni ma'lum bir yo'nalishga yo'naltirishdir. Yana shuni aytmoqchimanki, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini mustaqil fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish layoqatlarini o'z ichiga oladi. Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarining boshqa fanlar qatori ona tili va adabiyot fanidan ham test shaklida o'tkazilishi o'rta maktab ta'limida o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga ko'proq e'tibor berilishiga sabab bo'ldi. Shu bois, sohada olib borilgan kuzatuvlar natijasi o'quvchilarning ona tilidan grammatikaga oid nazariy ma'lumotlarni puxta o'zlashtirishini, test topshiriqlarini ishlay ishlay olishini ko'rsatdi. Lekin og'zaki va yozma tarzda mustaqil matn tuzish, so'zlarni to'g'ri qo'llay olish, mavzuga uyg'un holatda fikrni yoritib berolmaslik kabi xatolar kuzatiladi. Avvalo, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish savodxonlik bilan bog'liq. Tilshunoslarning fikricha, savodxonlik- ona tilida yozish va o'qish malakasining namoyon bo'lish darajasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Majidova. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish usullari. Til va adabiyot ta'limi jurnali. Toshkent. 2018
2. X. Ne'matov, O.Bozor. Til va nutq. T. 1993
3. Sharipov SH. S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogic asoslari. 2012
4. Usmonov S.A . Zamonaviy pedagogic texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Fan va texnologiya. 2008
5. [www. arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)